



ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

MS  
2021



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**MAXSUS SON (2021-yil, IYUN)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

# PEDAGOGIK MAHORAT

## Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021, MAXSUS SON

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriynashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvoohnoma bilan ro'yxatga olingan.

### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy  
Elektron manzil: ped\_mahorat@umail.uz

### **TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mas'ul kotib:** Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

[http://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/childcon.shtml](http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/childcon.shtml)

4. Мазыкина Н. В. Инновационные подходы в патриотическом воспитании и гражданском становлении личности // Воспитание школьников. – 2002. – № 6.– С. 6–11.

5. Маклаков А.Г., Коновалова Л.В. Интеллектуально-нравственная основа формирования общенациональной Российской идентичности // Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества материалы VI международной научной конференции. – 2016.– С. 11–15.

6. Махкамов У. Ахлоқ-одоб сабоқлари. – Т.: “Фан”, 1994. 115-б.

7. Солженицын А. И. Русский вопрос к концу XX века // Ориентир. – 1996.– № 12. – С. 31.

8. Харламов И. Ф. Педагогика: учеб. пособие. – М.: “Гардарики”, 2005. – 520с

9. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. –Тошкент: “Маънавият”, 1997

10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент, 2000-2006 й. 64-бет.

11. <https://president.uz/uz/lists/view/4089> (мурожаат санаси: 19.01.2021).

## O‘QUVCHI-YOSHLARNI MILLIY MAFKURA RUHIDA TARBİYALASH MAZMUNI

*Ushbu maqolada islohotlar jadallik bilan amalga oshirilayotgan bugungi sharoitida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan milliy mafkura va tarbiya tushunchalari, ularning amaliyotini ta‘minlash, ular o‘rtasidagi aloqadorlik kabi masalalar mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti jarayonida qanday namoyon bo‘layotgani, bu sohada ishlab chiqilgan milliy istiqol mafkurasi nazariyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarbiya, metod, shakl, vosita, dunyoqarash fikr, mafkura, milliy g‘oya, milliy mafkura.

*В статье рассказывается, как концепции национальной идеологии и образования, их реализация, взаимосвязь между ними, которые важны в современных условиях стремительных реформ, отражаются в процессе независимого развития нашей страны, национальной независимости, сложившейся в этой сфере, теории идеологии и ее особенности.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, метод, форма, средства, мировоззрение, идеология, национальная идея, национальная идеология.

*This article describes how the concepts of national ideology and education, their practice, the relationship between them, which are important in today's context of rapid reforms, are reflected in the process of independent development of our country, the national development in this area. the theory of the ideology of independence and its peculiarities.*

**Key words:** education, upbringing, method, form, means, worldview, ideology, national idea, national ideology.

**Kirish.** Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma‘naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida olimlar “mafkura” hodisasining ichki mohiyatini, qonunlarini anglashga va ularga amal qilish yuzasidan tadqiqotlarni kengaytirib bormoqda.

Barcha davrlarda ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma‘rifiy ishlar tizimi ana shu maqsad bilan bog‘langani sir emas. Olib borilgan ishlar zahirida muayyan manfaatlar bilan bog‘langan maqsadlar yotgan. Bu maqsadlar tizimi va ularning mohiyati turli siyosiy kuchlar yaratgan va amal qilgan mafkurada ifodalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “...milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, uni turli mafkuraviy qarashlardan holi baholash, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy mafkurani rivojlantirishimiz zarur” [14]ligini alohida takidlagan edi.

**Asosiy qism.** Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir. Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta‘lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Bu qonuniyat ilmiy – texnikaviy inqiloblar avj olayotgan hozirgi globallashuv davrida ham “mafkura” tushunchasini ilmiy-falsafiy jihatdan o‘rganish, bunda, avvalo, ijtimoiy fanlar sohasida mavjud hamda unga tegishli bo‘lgan barcha ilmiy falsafiy fikrlarni jamlab, ularni tahlil etish, tadqiq etilayotgan obyektga doir nazariy masalalarni aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy mafkuraning shakllanishi va rivojlanishi mamlakatning keng va chuqur islohotlar asosida taraqqiy etishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanar ekan, bu hodisani ijtimoiy falsafiy tahlil qilish orqali uning ijtimoiy mohiyatini to‘g‘ri tasavvur qilish va uning jamiyatdagi o‘rnini baholash imkoni ochiladi.

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me‘moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori-atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, avvalo, milliy mafkuraning shakllanishi, rivojlanishi va amal qilish jarayonini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘ziga xos

xususiyatlari ilm-fanda hali to‘liq o‘rganilmaganligi bilan bog‘liq murakkab jihatlar mavjudligini qayd etish lozim.

O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishida milliy mafkuraning ta’sirchanligini yanada kuchaytirish, aholining barcha qatlamlariga, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbiga singdirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda bu yo‘nalishda salmoqli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Zero, “O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish... bo‘yicha kuchli milliy mafkura, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim” [6, 116].

O‘z navbatida, milliy mafkuraning amal qilish qonuniyatlari muammosini ilmiy jihatdan maxsus o‘rganish jarayonida shu sohaga doir ilmiy-nazariy bilimlarni ijtimoiy falsafiy nuqtayi nazardan sintezlashtirish asosida uning tushunchalar tizimi va kategorial apparatini ishlab chiqishning zaruriyatga aylanganini anglatadi.

Davlatning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy mustaqilligi va demokratiyalashuv jarayonlari bevosita fuqaro ongi va tafakkurini keskin o‘zgartiruvchi mafkuraviy omillar bilan bog‘liq kechdi, u jamiyatning barcha sohalaridagi taraqqiyotiga mafkuraviy yo‘nalish berdi.

Bugungi kunda yon atrofimizda yoshlarning qalbi va ongini zaharlab ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishga qaratilgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy mafkura asosida barchamiz birgalikda kurashmog‘imiz, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlashimiz zarur.

Globalashuv sharoitida har bir davlat o‘z tub maqsad va manfaatlariga mos, uni himoya qilishga qodir milliy mafkuraga tobora ko‘proq ehtiyoj sezmoqda. Milliy mafkuraga ta’sir, uning o‘zgartiruvchilik kuchi hozirgi dunyoning dolzarb muammosiga aylandi.

Bugun nafaqat ma’naviy-mafkuraviy hayotimizda, balki kishilik jamiyatining barcha sohalarida o‘zgarish va yangilanishlar turmushimizga goh ijobiy, goh salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. “Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda” [16].

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanib borishi hamda axborot tarqatishning globalashuvi, bir tomondan, insoniyat taraqqiyotini, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, kuchli mafkuraviy ta’sir vositalariga aylanmoqda.

Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidan milliy mafkurani rivojlantirish konsepsiyasida “Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida yuksak salohiyatli, yangicha va mustaqil fikrlaydigan, O‘zbekistonning ertangi taqdirini o‘z qo‘liga olishga qodir yoshlarni tarbiyalash, bu borada innovatsion yondoshuvni keng joriy etish” [9] milliy yuksalish mafkuraning asosiy vazifalaridan biri sifatida keltirilgan.

Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini yangicha fikrlaydigan, yangicha bilimlarga ega bo‘lgan, ilmiy salohiyati yuksak mutaxassislar bilan ta’minlash zarur. Bu esa o‘z navbatida, quyidagilarni nazarda tutadi.

- o‘quvchi-yoshlarni zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari bilan tanishtirish;
- maktablarda o‘quv-tarbiya jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqarish va o‘qitish, shakl va metodlari tizimini takomillashtirish;
- o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida barkamol shaxs tarbiyasiga doir imkoniyatlarni yuzaga chiqarish;
- tarbiyaviy ishlarda har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga doir tarbiyaviy ishlar tizimini ishlab chiqish;
- ta’lim jarayoniga zamonaviy ilm-fan yutuqlarini joriy etish va h.k.

O‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashga ijodiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyotiga oid dalillar, xalqimiz va vatanimiz tarixi, milliy-ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanish, hayotdan olingan misollarni qo‘llash ijobiy natija beradi. “Ajdodlar merosi-ma’naviyatimiz tayanchi”, “Diniy akidaparastlik va terrorizm, unga qarshi kurashning huquqiy

asoslari”, “Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, dinlararo bag‘rikenglik - bizning oliy maqsadlarimiz”, “Do‘stlik kechasi”, Abu Nasr Forobiyning “Baxt- saodatga erishuv yo‘li” asaridagi falsafiy qarashlari, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari muhokamasi, “Din va inson huquqlari”, “Huquqiy madaniyatli avlod sog‘lomdir”, “Mustaqillik-sizning hayot tarzingiz, g‘ururingiz, tafakkuringizda qanday o‘zgarishlar yasadi?” mavzularida davra suhbatlari va tadbirlar shular jumlasidandir.

Shuning uchun mustaqillik tufayli o‘z milliy boyligimizga ega bo‘lganimiz, demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi mafkuraviy yakka hokimlik tizimining tugatilgani, mafkuralar xilma-xilligiga imkoniyat yaratilgani, umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi, inson erkinligi masalalarining mohiyati o‘quvchilarga tushuntiriladi. O‘quvchilarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashda mamlakatimiz xalqlarining yozma va og‘zaki ijodi namunalari, Vatanimizning boy tarixiy merosiga murojaat qilish ham samarali natijalar beradi. O‘quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlarni o‘rganish, ularni asrab-avaylash, milliy qahramonlarimiz, ulug‘ o‘tmishdoshlarimiz hayotidan o‘rnak olishga ehtiyoj uyg‘otish lozim. O‘quvchi-yoshlarda uzoq va yaqin o‘tmish to‘g‘risida bir tomonlama, o‘ta sodda, noto‘g‘ri tasavvurlardan saqlanish zarur. Masalan; yaqin o‘tmishda Amir Temurning G‘arb va Sharq xalqlari, el-yurt oldidagi xizmatlariga noto‘g‘ri baho berilib, uning Markaziy Osiyoni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etib, markazlashgan buyuk davlat tuzganligi, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san‘at sohasida, shaharlarni obodonlashtirish, yirik me‘morchilik obidalari barpo etish, suv inshootlari qurish, bog‘-rog‘lar barpo etish, xalqaro diplomatiya va savdo sohasidagi xizmatlaridan ko‘z yumib o‘tildi.

Bundan tashqari, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Maqsd Shayxzoda, Pirmuqol Qodirov, Ibrohim Mo‘minovlarning qimmatli asarlari badnom etildi. Husayn Boyqaro, Zaxiriddin Muxammad Boburlarning shaxsi ham qoralandi. Bunday misollarni keltirish bilan o‘quvchilarga mustaqillik ma‘naviy mulkimizni, tariximizni qayta tiklagani, o‘tmish tariximizga munosabatning o‘zgarganligini tushuntirish amalga oshiriladi, milliy g‘oya singdiriladi.

**Muhokamalar va natijalar.** Ta‘limni insonparvarlashtirish asosida shaxsning mustaqil rivojlanishi, dunyoqarashining shakllanishi orqali milliy g‘oya tarbiyalanadi. Bunda har bir o‘quvchida ongli tafakkurni shakllantirish va uning barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, insonparvarlashtirish, o‘quvchini bo‘ljak yetuk mutaxassis sifatida erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxsga aylantirishga yordam beradi, o‘zligini yuzaga chiqaradi. Bu bilan insonparvarlashtirish shaxsni shakllantirish va rivojlantirish shakli va usuli sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, ta‘limni insonparvarlashtirish o‘quvchilarda gumanistik dunyoqarash, tegishli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda milliy mafkurani tarbiyalashga olib keladi.

O‘quvchilarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashga o‘ta ilmiy yondashish yoki uni me‘yoridan ortiq soddalashtirish, nasihatgo‘ylikka berilib ketish ham ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Bu esa har bir ma‘ruzachi va muallimdan hayotni teran bilishni, yutuq va kamchiliklarni chuqur tahlil qilishni, o‘rtaga tashlangan muammolarni yechishga o‘quvchilarning o‘zini yo‘llashni, mustaqil fikr yuritish va muhokamalarda erkin ishtirok etishga qiziqтира olishni talab etadi. Ana shu taqdirdagina ta‘lim-tarbiya birligi amalga oshadi va o‘quvchi-yoshlar faqat tinglovchi bo‘lib qolmay, o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar. Lekin bunday holatlarda tarbiya mazmuni va yo‘nalishida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga e‘tibor berish zarur.

<b>O‘quvchi-yoshlardalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish jarayonlariga ta‘sir etuvchi omillar</b>	Jamiyatda sog‘lom muhitning yaratilganligi
	O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining o‘rgatilishi.
	Ma‘naviy meros va milliy qadriyatlarining tiklanishi.
	Qonun ustuvorligi va axloqiy–huquqiy me‘yorlarining yangilanganligi.
	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash markazining joriy etilishi.
	Ta‘lim tizimi va mazmunining yangilanganligi.
	Fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarishning modernizatsiyalashuvi.
	Diniy bag‘rikenglik va qadriyatlarining e‘zozlanishi.

Ilmlilik bilan birga odoblilik mezonlari, jamiyatda demokratiya bilan birga ijtimoiy adolatning qaror topishi, yoshlar ongida milliy mafkurani shakllantirish, vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘ularini tarbiyalash, kasbga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ularni turmushga tayyorlash faqat o‘quv mashg‘ulotlaridagina emas, ommaviy tadbirlar, ilmiy-ommaviy konferensiyalar, uchrashuvlar, lektoriylar, seminarlar, muloqotlar, ko‘rik-tanlovlar, bahslarda ham amalga oshiriladi.

Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, oliy va professional ta‘lim hamkorligida tashkil etilayotgan dual ta‘lim ham mafkura va mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘rganilinishi lozim bo‘lgan bilimlarni “Oila - mahalla - ta‘lim muassasasi hamkor”lik konsepsiya doirasida

ijtimoiy hayotga tadbiiq etsak, o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda yana bir bosqichni muvaffaqiyatli amalga oshirgan bo‘lamiz.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchi-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalashga yengil-yelpi yondashmasdan, uni bir andozaga solib qo‘ymasdan, mavsumiy targ‘ibotga aylantirmasdan, yoshlarning ong va tafakkurini rivojlantiruvchi, tashabbuskorlik va faollikni rivojlantiruvchi jarayonga aylantirish zarur. Bu esa jamiyat rivojini tezlashtiradi, o‘quvchi-yoshlarda fikrlar xilma-xilligi, dunyoqarashning yanada kengaytishga olib keladi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni -T.: “O‘zbekiston”, 2020-yil 23-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017-y. - 592 b
4. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. - T.: “O‘zbekiston” 2016-yil. -56 b
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 512 b
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. –T.: 2020-y.
9. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichidan milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 27-noyabr.
10. Axmedov I. Globallashuv sharoitida milliy g‘oya va tarbiya. – Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2020. -156 bet.
11. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. –T.: “Akademiya”, 2007-y.
12. Toxtaxodjayeva, Nishonova S., Hasanboyev J., Usmonboyeva, Madiyarova S., Qoldibekova A., Nishonova N., Sayidahmedov N. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). - Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010. – 400 b



қилгач, балоғат ёшига етганидан сўнг узатиш керак. Қизни ахлоқли, намунали куёвга, юзи ва сўзи, ички дунёси пок, рўзгор юрита оладиган йигитга узатиш лозим.

**Хулоса** қилиб айтганда, таълим-тарбия, оила ва ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш борасида тасаввурлар, тушунча ва тамойиллар мавжуд бўлиб, улар авлоддан-авлодга ўтиб янада сайқаллашиб халқ ҳаётига сингиб кетган. Булар мақол ва иборалар, эртақлар ва бошқа халқ ижодиётида намоён бўлиб, маълум бир тизимни ташкил этган. Бу тизим ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашда никоҳ ва оиланинг севги-муҳаббат асосига қурилиши, фарзандларни никоҳга тайёрлаш, ўғил уйлантириш ва қиз узатишга қўйиладиган талаблар, эр ва хотин, фарзандларнинг бурч-вазифаларидан иборат бўлиб, оила қуришда маълум бир концептуал асосни ташкил этади ва ёшларга оила қуришда катта имкониятлар яратганки, булар ҳақида кейинги параграфда фикр юритамиз.

#### **Адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикасининг “Оила кодекси”га шарҳлар. –Т.: “Адолат”, 2000. – 448 бет.
2. Аждодлар ўғити. Ҳикоялар, ҳикматлар, -Т., 1990. - 240 б.
3. Азаров Ю.П. Оила педагогикаси.–Т.: “Ўқитувчи”, 1988. - 272 б.
4. Ал-Бухорий, Али Абдуллоҳ Муҳаммад ибн-Исмоил. Ҳадис.4 китоб.1-китоб.-Т.:Қомуслар бош таҳририяти,1991.–560 б.
5. Бўриев О., Холиқов Д. Туркона анъана ва удумлар-миллат кўрки. -Т.:“Минхож”, 1996.-48 б.
6. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси.-Т.: ТДПУ, 1999. -152 б.
7. Каримов Х.К. Ўзбек оилаларида эр-хотин низоларининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. -Т.: ТДПИ, 1994. – 16 б.
8. Мунавваров А.К. Оила педагогикаси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1994. –112 б.
9. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Т.: “Маънавият”, 1998. - 160 б.